

AYOL MATONATI: TARIXIY KONTEKST VA ZAMONAVIY TALQINLARI

G'ofurjonova Mohlaroy

Andijon davlat pedagogika insituti maktabgacha ta'lim yonalishi talabasi.

Usmonova Xabibaxon

Andijon davlat pedagogika insituti maktabgacha ta'lim yonalishi talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqola ayol matonati tushunchasini tarixiy rivojlanishi madaniyatlararo farqlar va zamonaviy jamiyatda qanday qabul qilishi haqida va badiiy adabiyotda ayollar obrazlari aks ettirilgan.

Kalit soʻzlar: badiiy adabiyot, ayollar obrazi, badiiy talqin, yozuvchining estetik ideali, ayol tasviri, obrazlar hayot tarzi.

Oʻzbek adabiyotida ayollar obraziga murojaat qilish, ularning turfa qiyofalarini yaratish XX asrning dastlabki yillarida yaratilgan nasriy asarlarimizda koʻrina boshladi. Kumushbibi, Zaynab (“Oʻtkan kunlar”), Zebi (“Kecha va kunduz”), Unsin (“Dahshat”), Gulnor (“Qutlugʻ qon”), Saida (“Sinchalak”) va h.k asarlarni keltirishimiz mumkin. Garchand, bu asarlarning barchasida ayollar obrazi yetakchi qahramon darajasiga chiqmagan boʻlsa-da, asardan koʻzlangan maqsadni u yoki bu darajada ochish uchun xizmat qilgan. Zamonaviy oʻzbek adabiyotida Xurshid Doʻstmuhammad, Erkin Aʼzam, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Ulugʻbek Hamdam, Qoʻchqor Norqobil, Luqmon Boʻrixon, Zulfiya Qurolboy qizi kabi adiblarimiz ijodida erkaklar bilan teng ijtimoiy hayotimizda faoliyat yuritayotgan, yoki shu hayotning qaysi bir jihatida oʻz oʻrniga ega ayollar obrazlari muhim oʻrin egallaydi.

Ayollar obrazi kirib bormagan sanʼat sohasining oʻzi boʻlmasa kerak, nazarimizda. Badiiy adabiyot, haykaltaroshlik, rassomchilik, miniatyura, raqs, teatr, kino va hozir esimizga kelmayotgan qanchadan-qancha sanʼat turlarining barchasida Ayol obrazi markaziy oʻrinda turadi. Xususan, mavjud ilmiy materiallarning mazmun-mundariyasi shuni koʻrsatmoqdaki, Ayol obrazining sanʼat va adabiyotdagi badiiy talqini, ularning jamiyatda tutgan oʻrni masalasi adabiyotshunoslik, psixologiya, falsafa, tarix, siyosatshunoslik, sanʼatshunoslik kabi turfa fanlarning ham oʻrganish obʼekti boʻlganini koʻrish mumkin. Jumladan, arab tadqiqotchisi A.A.Xalaf “Arab sanʼatida Ayollar obrazi” nomli maqolasida shunday yozadi: “Sharq sanʼtida ayol obrazi markaziy oʻrinni egallaydi. Ammo bu obraz koʻp maʼnolarga ega boʻlib, turlicha talqin qilinadi. Bir tomondan, u ayolni maʼnaviy yuksak darajada boʻlsa-da “narsa” sifatida, ammo dunyoviy sevgining timsoli sifatida tasvirlaydi. Ikkinchi tomondan, ayol nisbatan dunyoviy sevgi Allohga muhabbat ramzini ifodalaydi. Bu ikkinchi xususiyatda ayol tasviri ayniqsa sheʼriyat va tasviriy sanʼat sintezida keng

qo‘llanilgan”.

O‘zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” hamda Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanlaridagi Ayollar obrazi va yozuvchining estetik ideali masalasi bo‘yicha ish olib borgan adabiyotshunos olim X.Lutfullayevaning dissertatsiyasida “Kumush” va “Zebi” obrazlarini yozuvchining estetik ideali sifatida yaratilganini ikki bobda keng tahlil qilgan holda “Insoniyatning tamal toshi asosini tashkil qiluvchi ayol va uning obrazi hamda estetik ideal muammolarini tadqiqotimiz uchun mavzu qilib olar ekanmiz, uning muhimligi ayniqsa, hozirgi hayotimiz uchun dolzarflik kasb etadi. Chunki ayol yer yuzidagi jamiki insoniyatni tug‘ib, voyaga yetkazgan, bashariyatning davomiyligini ta‘min etuvchi zotdir”, degan fikrni ilgari suradi. Tadqiqotchining fikr-mulohazalariga yaqin fikrni adabiyotshunos olim Z.Isomiddinov “Ikki ayol” maqolasida alohida ta’kidlab o‘tgan: “Insonshunoslik bo‘lmish adabiyot birinchi navbatda ayolshunoslik, ya’ni ayolni o‘rganish, inkishof etish ilmidir. Kuzatsak, eng qadimgi asarlar ham ayolga bag‘ishlangan, ular konfliktini ayol va unga aloqador narsalar tashkil etadi. Hatto aytish mumkinki, adabiyot taraqqiyoti ayol mavzuining badiiy tadqiqi, uning teranlasha borishi bilan chambarchas bog‘liq”.

So‘nggi bekat” romani yozilgandan so‘ng u haqida matbuotda adabiyotshunos olimlar tomonidan bir nechta tanqidiy maqolalar chop etildi. Roman haqidagi tahliliy-tanqidiy maqolalarning bir tomonlama – xo‘jalik rahbari faoliyatiga bag‘ishlanib qolganining bosh sababi, biznigcha, aksar adabiyotshunos olimlarimiz O‘ktam Umaraliyevni bosh qahramon sifatida talqin qilishadi va shu yo‘nalishdan kelib chiqib talqin qilishadi hamda shu yo‘nalishdan kelib chiqib, asar tahliliga kirishib ketadilar. Adabiyotshunos olim U.Normatov esa asarda bosh qahramon yo‘q, deb hisoblaydi. Bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Romanning bosh qahramoni – Munira. U tarix fani o‘qituvchisi. Tarix uning vujudiga moddiy bir narsadek singib, jonli bir bo‘lagiga aylanib qolgan”. U o‘qituvchi sifatida o‘z o‘quvchilarini bir necha marta Eski Termizga, butparastlarning Qoratepa ostidagi ibodatxonasiga olib tushgan. U “kitobga kirmay qolgan boshqa tarix” – O‘rta Osiyo, O‘zbekistonning antik tarixidan ham saboq beradi. Bu asardan ham ayollarni matonatlilikini sezishimiz mumkin.

Biz ayol kishining matonati, irodasi haqida ko‘plab filmlar ko‘ramiz, eshitganmiz yoxud o‘qiganmiz, ularni o‘zimizdan qandaydir uzoqda, olisroqda tasavvur qilamiz. Ammo bundaylar juda yaqinimizda, balki oramizda ekanini ba‘zan sezmay ham qolamiz.

O‘zbek adabiyotshunosligida ayollar obraziga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqotni Maqsud Shayxzoda “Navoiy ijodida ayol obrazi” nomli maqolasi bilan boshlab berdi. U Shirin, Mehinbonu, Layli, Dilorom, Ravshanak obrazlarida jismoniy, ijtimoiy, aqliy, madaniy, jangovarlik xislatlari uyg‘unlashganligini ta’kidlaydi.

Sh.Abdullaeva esa “Xamsa”dagi ayollar obrazini alohida tadqiqot sifatida belgilab nomzodlik ishida o`rgandi. Olima asosiy e`tiborni jarayonda davr g`oyalaridan kelib chiqib, Alisher Navoiy o`zi bino qilgan obrazlar orqali feodal tuzum sharoitida ayollar haq-huquqlarining paymol qilinishiga qarshi kurashgan kabi qarashlarni ilgari surgan.

XULOSA Shu o`rinda ta`kidlash zarurki, ayol obrazi va ayol qismati degan tushuncha bir xil tushuncha emas. Jarayonda adiblar tomonidan ishlanayotgan asarlarda ayrim istisnolarni hisobga olmaganda ayollar ko`proq juftlikning biri yoki yordamchi obrazlar sifatida gavdalanadi. Yuqorida tilga olingan adiba asarida esa ayol qismatini tasvirlash yetakchi planga ko`tariladi. Alohida ta`kidlash zarurki, adiba tomonidan yaratilgan romanlarda ayol qismati har doim ham mukammal xarakter darajasiga ko, tarila olmaganligi, ba`zan hayotdagi ayollarimizning naturalistik qiyofadoshlariga aylanib qolayotganini, tom ma`noda estetik hodisaga aylantirishda iste`dodlari pand berayotgani ham seziladi. Shu o`rinda bir savol tug`ilishi mumkin. Nima uchun adibalarimiz tomonidan yaratilayotgan romanlarda ayol obrazi qismat darajasidagina tasvirlashga e`tibor qaratilgan. Ularning turmush chig`irig`i orasida o`ralashib qolgan siymolarini ifodalash bosh maqsadga aylanmoqda. Albatta, bu holning o`ziga xos ijtimoiy-psixologik sabablari ham talaygina.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Shayxzoda M. Navoiy ijodida ayol obrazi. – Toshkent, Adabiyot va san`at, 1972. – B. 58–68.
2. O`razbaeva M. Hozirgi o`zbek romanchiligida ayol obrazi va uning qiyosiy tahlili. PhD diss. – Toshkent. 2021. – B. 17. Abdullaeva Sh. Alisher Navoiyning xotin-qizlar haqidagi gumanistik fikrlariga doir (Xamsa asarida). Filol. fan. nomz...diss. – Toshkent, 1954. – 119 b.
3. Yoqubov I. Mustaqillik davri o,zbek romanlari poetikasi. – Toshkent: 201
4. Fitrat. Tanlangan asarlar. 4-jild. Toshkent: Ma`naviyat, 2006.-B.17.
5. Qo`shjonov M. Hayot va mahorat. Toshkent, 1962. –B.16.
6. Sodiqova T. Ayolga qasida. Toshkent: “O,zbekiston” nashriyoti, 2008. B. 326.
7. Yakubov I. Mustaqillik davri o`zbek romanlari poetikasi. Filol. fan.d- ri... diss. – Toshkent. 2018. – B. 281–293.